

PRAGMATIK MA'NO TURLARINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

Mirzayeva Nigoraxon Anvarovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti,

Lingvistika yo'nalishi, 2- kurs magistranti

+99899-019-67-87

n_mirzaeva11@mail.ru

Ilmiy rahbar: Ismailov Turg'un Salaxiddinovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

+99890-502-12-12

turgunismailov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Pragmatik ma'no turlarini shakllantiruvchi muhim omillar, komponentlar hususida ma'lumot beradi. Tadqiqotning maqsadi pragmatik ma'nolarni tavsiflashda asosiy omillardan hisoblangan lingvistik parametrlar hamda kommunikativ-pragmatik vaziyat parametrlarini tahlil qilishdir.

Kalit so'zlar: pragmatik ma'no, faktorlar, ma'noning pragmatik komponentlari, tasniflash, lingvistik parametrlar, kommunikativ-pragmatik vaziyat parametrlari.

Аннотация: В этой статье исследуются важные факторы и компоненты, формирующие типы прагматического значения. Целью исследования является анализ лингвистических параметров и компонентов коммуникативно-прагматической ситуации, которые являются важными параметрами в классификации прагматических значений.

Ключевые слова: прагматический смысл, факторы, прагматические компоненты значения, классификация, лингвистические параметры, параметры коммуникативно-прагматической ситуации.

Abstract: This article provides information about the important factors and components that form the types of pragmatic meaning. The purpose of the study is to analyze the linguistic parameters and the parameters of the communicative-pragmatic situation, which are considered to be the main factors in the description of pragmatic meanings.

Key words: pragmatic meaning, factors, pragmatic components of meaning, classification, linguistic parameters, parameters of communicative-pragmatic situation.

Pragmatika tilning kontekstda qanday qo'llanilishi va so'zlarning lug'aviy talqinidan tashqari qanday ma'no kasb etishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir. Ma'nuning pragmatik komponentlarini shakllantiruvchi parametrlarni tadqiq etish nutq jarayonini to'liq anglashning muhim jihatni hisoblanadi. Ular so'z yoki iboraning lug'aviy ma'nosini bilan aniq kommunikativ vaziyatlarda qo'llanilishi o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Biz pragmatik ma'noni keng ma'noda tushunamiz - bu "tarixiy, madaniy, ijtimoiy sharoyitlar va inson bilimlari va e'tiqodlarining butun majmuasi bo'lib, ushbu muhitda til faoliyati sodir bo'ladi va tildan foydalanishga hamda o'zaro munosabatga ta'sir qiladi." [Звегинцев В. А., 1973, 8]. Avvalgi tadqiqotlar turli xil pragmatik komponentlarni aniqlab berishga xizmat qildi, ammo ularning tasnifi hamon chuqur izlanishlarni talab etadi. Mumkin bo'lgan tasniflardan biri so'z ma'nosining ma'lum bir tomoni bilan korrelyatsiya tamoyiliga, ikkinchisi esa kommunikativ-pragmatik vaziyatning tashqi parametrlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Nutq jarayonida qo'llanilgan pragmatik ma'no turlari tavsiflashda, avvalo, so'zlovchilarining ijtimoiy mavqeyi, kommunikativ harakatlarning real sharoitlari va ularning tinglovchiga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan foydalanish xususiyatlari tushuniladi. Shuning uchun so'z, jumla, gaplar yoki matnni tavsiflashda uning qanday yaratilganiga emas, balki qanday maqsadda qo'llanilishiga asosiy e'tibor beriladi. Oldingi tadqiqotlar alohida pragmatik ma'nolarni shakllantiruvchi omillarga qaratilgan bo'lsada, ushbu maqola pragmatik komponentlarni ularning ham lingvistik parametrlar, ham kommunikativ-pragmatik vaziyatlarning parametrlari bilan aloqasi asosida tasniflashning yangicha yondashuvini taklif qiladi.

Lingvistik parametrlarga ko'ra tasniflash. Pragmatik ma'nolarni tasniflash usullaridan biri so'zning lug'aviy, denotativ ma'nosining o'ziga xos tomonlari bilan o'zaro bog'liqligidir. Masalan, implikaturani gaplarning aniq mazmuniga va tinglovchilar tomonidan chiqarilgan xulosalarga bo'lgan munosabati asosida tasniflash zarur hisoblanadi. Shuningdek, taxminlarni dunyo haqidagi asosiy taxminlariga yoki suhabatdoshlar o'rtasidagi umumiylarga ko'ra tasniflash mumkin. Turli pragmatik komponentlarning leksik semantika va sintaktik tuzilmalar bilan o'zaro ta'sirini

o‘rganib, nutqda ma’no qanday yasalishi va izohlanishi haqida tushunchaga ega bo‘lamiz. Ushbu tasnif so‘zlar va ularning ma‘nolari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash imkonini beradi, bu esa tildan foydalanishning murakkabliklarini chuqurroq anglashga zamin yaratadi. Ushbu tahlil orqali tilning nozik tomonlarini va uning muloqotga ta‘sirini ochib berishga xizmat qiladi. Pragmatik komponentlar va so‘z ma’nosining o‘ziga xos tomonlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tilning kontekstda qanday ishlatilishini tushunishda katta ahamiyat kasb etadi. Pragmatik komponentlarni tasniflash orqali tilning muloqotda qanday ishlashini amaliy tushunish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Korrelyatsiya leksik jihatdan, so‘z bir xil soha yoki jinsdagi boshqa so‘zlar bilan o‘zaro aloqasi va grammatik jihatdan, u gap yoki gap elementlari bilan bog‘langanda ifodalanishi ko‘riladi. So‘z ma’nosini jihat bilan bog‘liqligini tushunish matn sifatini va fikr yetkazishning aniqligini oshirishga ko‘mak beradi. Leksik ma’noning pragmatik komponenti subyektiv munosabat, baholash, ishora qilingan faktning tajribasi, shaxsning ushbu faktga subyektiv munosabati haqidagi ma’lumotlarni anglatadi. So‘z ma’nosining pragmatik ma’no tasnifiga ta’sir qilish usuli qo‘llaniladigan muayyan lingvistik nazariyaga qarab farq qilishi mumkin. Ayrim nazariyalar pragmatik ma’noni aniqlashda so‘z ma’nosining ahamiyatini ta’kidlab, so‘zlarning ma’nolari so‘zlovchilarning ularni kontekstda qo‘llash usullariga bevosita ta’sir etishini ta’kidlaydi. Boshqa nazariyalarga ko‘ra, so‘z ma’nosini pragmatik ma’noga hissa qo‘shadigan ko‘plab omillardan faqat bittasi va kontekst va boshqa lingvistik elementlar muhimroq rol o‘ynaydi deb hisoblaydilar. Misol tariqasida ushbu gaplarni tahlil qilamiz: A) Mary enjoyed the book. B) Mary enjoyed reading the book. Birinchi misolda fe’l va ot semantikasining o‘zaro ta‘siri natijasida kompozitsiya hosil bo‘ladi. “Meri kitobdan zavq oldi.” Muayyan quvonchli hodisa leksik semantik tuzilishiga asoslangan ot bilan ta’minlandi. Ikkinci gapda esa Meri o‘qish jarayonidan zavq olganini bildiradi. Demak, so‘zning lug‘aviy ma’nosini pragmatik ma’noni qurish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘zning o‘ziga xos ma’nosini yoki ma’nolari va assotsiatsiyalari kontekstda qanday talqin qilinishiga yordam beradi. So‘z ma’nosini va pragmatik ma’no o‘rtasidagi munosabatlar murakkab va ko‘p qirralidir. So‘zlarning

kontekstda qanday ishlatalishini o‘rganib, so‘zlovchilarning niyatlari va tinglovchilarning umidlarini hisobga olgan holda, tilshunoslar so‘z ma’nosni pragmatik ma’no tasnifiga qanday ta’sir qilishini amaliy tushunishlari zarurdir. Ushbu omillar tilning muloqotda qanday ishlashi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirda ma’no qanday tuzilganligini asoslab boradi.

Sintaktik struktura yoki gapdagi so‘z va iboralarning joylashishi muloqotda pragmatik ma’noning tasnifiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, jumlaning muayyan elementlariga, so‘z tartibi, intonatsiya kabi sintaktik vositalar orqali ma’lum so‘z, iboralarni ajratib ko‘rsatish orqali so‘zlovchi tinglovchiga axborotni muhimligini ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladi. Sintaktik strukturaning pragmatik ma’no tasnifiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ba’zi usullar quyidagi misolda namoyon bo‘ladi: “O‘qituvchi kitobni o‘qidi.” “Kitobni o‘qituvchi o‘qidi.” Ikkinchi misolda ta’kidlash namoyon bo‘layotgani kuzatiladi. Demak, sintaktik struktura pragmatik ma’noni muhit bilan qanday ta’sirga ega bo‘lishini va tinglovchi tomonidan qilinadigan tasavvurlarni o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, sintaktik struktura gapning umumiyligi pragmatik ma’nosini shakllantirish uchun presuppozitsiyalar va implikaturalar bilan o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Axborotning sintaktik tarzda tuzilishi ma’lum bir taxminlar yoki implikaturalarni keltirib chiqarish asnosida pragmatik ma’noning tasniflanishiga ta’sir qiladi. “The dog chased a rabbit through the pasture.” “It quyonni yaylov bo‘ylab quvdi.” Bu gap ot-fe’l-ot tuzilishidan kelib chiqqan bo‘lib, sintaktik jihatdan izchil ma’noga egadir. Sintaksis, boshqa kontekstual faktorlar bilan birga, jumlaning tushuntirilishini va pragmatik omillarni yuzaga keltiradi.

Gaplarning pragmatik ma’nosini shakllantirishda lingvistik vositalar, jumladan, fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Til oddiy so‘z va grammatikadan tashqariga chiqadigan murakkab tizimdir. Lingvistik vositalar so‘zlovchi tomonidan ma’noni kodlash va dekodlash vositalarini taqdim etadi, bu esa g‘oyalar va his-tuyg‘ularning nozik ifodalanishiga imkon beradi. Tovushlarning paydo bo‘lish va idrok etish usuli bilan shug‘ullanuvchi fonetika va fonologiya nutqning pragmatik ma’nosiga katta ta’sir ko‘rsatib, intonatsiya kinoya

yoki urg‘uni bildirish bilan birgalikda tovush balandligi kabi fonetik xususiyatlar esa hissiy nyuanslarni yetkazishda faol ishtirok etadi. Fonologik qoidalar ham pragmatik ma’noni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki talaffuzdagi o‘zgarishlar xabarning turlicha talqin qilinishiga olib keladi. Morfologiya va sintaksis ham pragmatik ma’noning tavsifiga ta’sir etuvchi lingvistik vositalar bo‘lib, so‘zlarni tanlash va jumlalar tuzilishi orqali so‘z va ma’no o‘rtasida aloqa o‘rnatadi. Gapning semantik mazmuni pragmatik omillar bilan o‘zaro ta’sirlashib, boy ma’no uyg‘unligini yaratadi. Ma’nodagi semantik murakkablik ritorik effektga ta’sir etib so‘zlovchining fikrlarini mazmunan boyitishga xizmat qiladi. Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, nutqning boshqa parametrlari bilan birgalikda lingvistik vositalar ma’noni nozik talqin qilishga yordam beradi hamda lingvistik vositalarning pragmatik ma’noga qanday ta’sir qilishini tushunish orqali biz tildan murakkab g‘oyalar, his-tuyg‘ular va niyatlarni yetkazish uchun qanday foydalanishi haqida tushunchaga ega bo‘lamiz. Shakl va funktсиya o‘rtasidagi ushbu dinamik muloqotni boyitib boradi.

Pragmatik ma’noni tasniflashda ishtirok etuvchi keyingi muhim omil **kommunikativ-pragmatik vaziyat parametrlaridir**. O‘z navbatida ushbu parametrlar so‘zlovchi maqsadi, auditoriya salohiyati, ijtimoiy me’yorlar va madaniy konvensiyalar, situativ kontekst kabi omillar asosida shakllanadi. So‘zlovchi maqsadini ifodalashda o‘ziga xos lingvistik vositalarni tanlashi, ohangi, rasmiy yoki norasmiy murojaat uslubidan foydalanishi shular jumlasiga kirib, tinglovchiga xabar yetkazish, ishontirish, ko‘ngil ochish yoki muayyan his-tuyg‘ularni uyg‘otish istagini o‘z ichiga oladi.

So‘zlovchi maqsadi so‘z tanlashga, jumla tuzilishiga, nutq uslublaridan foydalanishga va matnning pragmatik ma’nosiga ta’sir qiluvchi boshqa jihatlarida o‘z ifodasini topadi. Notiq tinglovchini biror narsaga ishontirishni maqsad qilgan bo‘lsa, u o‘z pozitsiyasini tasdiqlash uchun dalillar, faktlar va mantiqiy aloqalardan, hissiy reaksiyani tasvirlamoqchi bo‘lsa, yorqin ta’riflar, metaforalardan, hissiy rang beruvchi jumlalardan foydalanadi.

Auditoriya salohiyati muayyan bilim va tajribasida, qadriyatlarida, maqsadi va hissiy holatida namoyon bo‘lib, tinglovchining nutqni qay tarzda qabul qilishiga qarab pragmatik ma’no kelib chiqadi. Darhaqiqat, notiq nutq faoliyatida tinglovchi e’tiqodi va qadriyatlarini hisobga olishi tushunmovchiliklarni bartaraf etib, maqsadi hosil bo‘lishida yetakchi vazifani bajaradi. Tinglovchining hissiy holati nutqdan anglashilgan fikrni qay tarzda anglashiga ta’sir ko‘rsatadi.

Pragmatik ma’no komponentlarini tavsiflashda keyingi muhim omil ijtimoiy me’yorlar va madaniy konvensiyalar hisoblanadi. Ijtimoiy me’yorlarga misol bo‘luvchi jamoadagi xulq-atvor qoidalari, o’zaro munosabatlarni tartibga solish, jamiyatdagi barqarorlikni ta’minalash kabi me’yorlar pragmatik ma’no o‘zagiga ta’sir ko‘rsatadi. Bir jamiyatning ijtimoiy me’yori boshqa jamiyatdagidan farq qilganidek, nutqdagi pragmatik ma’nolar ham ushbu mezonlarga asoslanadi. Ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ijobiylik xususiyatlarini inkor etmagan holda uning ayrim farqli omillari nutqdan pragmatik foydalanishda hisobga olinishi kerak va ushbu omillar asosida ma’lum jamiyatga tegishli pragmatik ma’nolar o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy me’yorlar va madaniy konvensiyalarning pragmatik ma’no klassifikatsiyasidagi ahamiyati, jamiyatdagi axloqiy, qonuniy, ijtimoiy normalar va subyektlarning ijtimoiy ahamiyatga ega xulq-atvorini baholash uchun muhimdir. Bu me’yorlar jamiyatdagi harakatlarga munosabat mezonni, aniq subyektlarning ijtimoiy ahamiyatga ega xulq-atvorini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ba’zi madaniyatlarda turli toifadagi odamlar bilan muloqot qilishda xushmuomalalik yoki murojaatning muayyan shakllaridan foydalanish odatiy hol sanalib, ushbu shakllar boshqa jamiyatning madaniyatida keskin farqlanishi mumkin.

Situativ kontekstning pragmatik ma’no turlarini hosil qiluvchi komponentlariga ta’sirini o‘rganishda ijtimoiy holat, vaziyatga ahamiyat qaratish kerak. Jumlaning pragmatik ma’nosi u yaratilgan ijtimoiy, tarixiy yoki madaniy kontekstga bog‘liq sanalib, bayonotdagi kontekst ma’nosи va talqiniga qanday ta’sir qilishini tushunishga ko‘mak beradi. Pol Grisning implikatura nazariyasi, suhbat va xushmuomalalik strategiyalari kabi tamoyillar so‘z yoki jumlaning ma’nosи uchun ishlata digan

muntazamlik xususiyatlarini o‘z ichiga olib, so‘zlovchining ma’lumotni qanday yetkazishi va boshqalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishini boshqaradi. Faylasuf olim Aloysius Martinichi quyidagi fikrni bildirib o’tgan: “Kooperativ printsipining mazmuni shunday bo‘lishi mumkin: nutqingiz maqsadiga erishish uchun kerak bo‘lgan hamma narsani qiling; bu maqsadni buzadigan hech narsa qilmang.” Pragmatik xulosa tinglovchilarga kontekst va umumiyligini bilim asosida ma’nodagi bo‘shliqlarni to‘ldiribgina qolmay, noaniq vaziyatlarda ham samarali muloqot qilish imkonini beradi. Pragmatik kompetentsiya ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni boshqarish va nutqda nazarda tutilgan ma’nolarni izohlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Situativ kontekst so‘zlovchi va tinglovchi muloqotlarida ba’zi umumiyligini bilimlarni o‘zaro almashishlarini anglatadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, pragmatik ma’nolarni tasniflashda yuqorida qayd etilgan omillar pragmatik ma’noni muhim jihatlarini ajratib, insonlar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro ta’sir jarayonlarini amaliy tushunishga yordam beradi, shuningdek, axborotni idrok etish va talqin qilishning turli tomonlarini hisobga olish asosida muloqot samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika (monografiya). -T.: 2008 yil, - B.56
2. Grice, H. Paul. “Logic and conversation”. Syntax and Semantics, 1975.
3. Martinich, Aloysius. “Communication and Reference” Valter de Grayter, 1984.
4. Арутюнова Н.Д., Падучева Е. В. “Истоки проблемы и категории прагматики”. Новое в зарубежной лингвистике. – М. 1985 – Вып. 16
5. Звегинцев В. А. “Язык и лингвистическая теория”. – М 1973
6. <https://www.writersdigest.com/write-better-fiction/semantics-vs-syntax-vs-pragmatics-grammar-rules>
7. <https://core.ac.uk/download/pdf/81214835.pdf>